

G'OFUR G'ULOM ASARLARIDA VAQTNING INSON
HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

G'oyibnazarova Adiba

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali G'ofur G'ulomning hech unutilmas asarlari, ulardagi vaqtning qadri ya'ni hammamizga ma'lum bo'lgan "Vaqt" she'ri orqali bir lahzaning inson hayotida tutgan o'rni, shuningdek "Shum bola" asarining badiii tahlili o'sha davrning ba'zi voqealari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: G'ofur G'ulom, she'r, qissa, Vaqt qadri, lahza, armon.

G'ofur G'ulom-bu adibimizning nomini tilimizga olganimizda, birinchi galda xayolimizga "Shum bola" qissasi keladi. Biz, shubhasiz, bu asarni sarguzasht va kulgili asar sifatida bilamiz. Biroq, shu bilan birga adibning kulgisi, sarguzashtli syujet qismlarida uning zamonasi haqidagi jiddiy o'y-fikrlari, tahliliy g'oyalarini ham ko'rsatib o'tadi.

"Bozorda sanqib yurgan daydi bolalar uchun quvonchli ermaklardan biri bozor, mahalla, ko'cha-ko'y jinnilari edi. O'sha yillari Toshkentda shunaqa ham jinni ko'p ediki, sanab sanog'iga yetolmaysiz". Bu tasvir asar ekspozitsiyasini tashkil etadi. Keltirib o'tgan jumlamda, adib Shum bola hikoyasini o'zi o'sgan muhit bilan boshlaydi. Shuni ham ta'kidlab o'tish zarur, ya'ni adib o'smirlik paytidagi hayotning adib xotirasida tiklangan voqealar sifatida ham tahlil qilsak bo'ladi. Jumladan, Shum bola o'zi va o'rtoqlari haqida; "Ertadan kech ko'cha changitib, hammaning joniga tegib kampirlardan qarg'ish eshitib, o'spirinlardan kaltak yeb, sandiroqlab yuradigan bekorchi bolalarmiz"-deya yoshlikdagi sho'xliklarni ham kiritib o'tadi.

Bu asarda Shum bola o'yingaroqligi tufayli, onasidan har xil dashnomlar eshitadi. Ya'ni Shum bola tuxumni solib ketayotganda, onasi chaqirib qoladi va onasi boshiga urganda tuxum yorilib ketadi. Bu yerda onaning ham mehrini ko'rish mumkin. Shum bola esa onasiga jaxl qilib qochib ketadi. Asarning tuguni ya'ni qahramonimizning chigalliklari va sarguzashtlari boshlanadi. Shu bilan birga zamon og'irligini, oddiy aholi bir burda non uchun tinimsiz mehnat qilishlaarini, turli xil adolatsizliklarni ham ko'rishimiz mumkin.

Shum bola uyidan chiqib endi o'z qornini to'ydirishi kerak va shu bilan turli xil ishlarga qo'l uradi. Eshonning uyida eshagini so'yib qo'yadi. Xazrat bilan o'lik yuvadi. Eshon to'g'ridan-to'g'ri o'g'irlikka boshlaydi, Sultonali boshliq o'g'rilar to'dasiga qo'shilib qoladi. Sariboy bo'lis ismli bir boyning qo'rg'oniga xizmat qiladi. Turli xil yumushlarni bajaradi, olmalarning tagini teradi, bozorga olib chiqib sotib

keladi va shunga o`xshash yumushlarni bajaradi. Xo`jayini Sariboy bo`lis eng ziqna, xudo urgan deb tasvirlanadi. Shum bolani ishga olishda suhbat qiladi. Sariboy bo`lis qanday aybing bor deganda, ora-orada yolg`on gapirib turshini aytadi va bu gapi unga asar davomida yordam beradi. Sariboy bo`lisning "Innangkeyin" so`ziga hech kim javob berolmedi va javob berolmaganda kaltaklaydi. Ammo, xizmatkorlarini orasida norozilik yuzaga keladi, boyning oldiga borib aytishga qura tashalganda, Shum bolaning borishiga to`g`ri keladi va hu yerdan bolaning qiziqarli sarguzahlari boshlanadi va asar kulminatsiya sifatida qabul qilishimiz mumkin. Sariboy bo`lisni har yolg`onlar bilan qo`rqitadi-itning o`lgani, pichoq singani, omborga o`t ketgani, qo`riqxonaga yongani, o`g`li Bo`riboyvachchaning o`lgani va shunga o`xshash gaplari bilan talmovsiratib qo`yadi.

Xulosa qilib shuni ta`kidlay olamanki, davrning jadidlar tanqid qilgan deyarli barcha illatlari "Shum bola" badiiy voqeligida o`z ifodasini topgan deyishimiz mumkin. Bu asardan shuni his qilish mumkinki, qissadagi hayot tasvirida "ortiq bu tarzda yashab bo`lmaydi, jamiyat isloh qilinishi kerak" degan xulosa kelib chiqadi. Demak, G`ofur G`ulom "Shum bola" asarida mehnatkash xalq hayotini ichdan tasvirlaydi.

G`ofur G`ulomning "Vaqt" she`rining adabiy tahlili

G`ofur G`ulom ijodining muhim bosqichi, ya`ni she`riyatiga ham o`z fikrimni bildiraman. Ya`ni menga juda yoqqan she`ri "Vaqt" she`ridir. Bu she`rda asosiy tushuncha – lahza.

G`uncha ochilguncha o`tgan fursatni,
Kapalak umriga qiyos etgulik.
Ba`zida bir nafas olgulik muddat,
Ming yulduz so`nishi uchun yetgulik.

Bu misra orqali inson olgan har bir nafasining qanchalik ahamiyatligini sezamiz. Bu misrada o`xshatishni juda ham chiroyli tasvirlaganki, inson qalbiga yetib boradigan so`zlar bilan ifodalay olgan deyishimiz mumkin.

Yashash soatinig oltin kapkiri,
Har borib-kelishi bir olam zamon.
Koinot shu damda o`z qo`rasidan,
Yasab chiqa olur yangidan jahon.

Bu jumalalarda shuni ta`kidlab o`tish mumkin, ya`nib bu yerda kuchli o`xshatish bor desak bo`ladi, yashash soatinig oltin kapkiri deb soat millarini nazarda tutgan va mana shu millarning har borib kelishini biro lam zamon deya ta`kidlaydi. Mana shu vaqt Ichida esa koinot o`z qo`rasidan yangidan jahon yasab chiqa oladi.

Yarim soat ichida tug`ilib, o`sib,
Yashab, umr ko`rib, o`tguvchilar bor;

Ko`z ochib yumguncha o`tgan dam qimmat

Bir lahza mazmuni bir butun bahor.

Bu misralarda esa,ko`z ochib yumishga ketgan vaqtni qimmatli,bir lahzani mazmunini esa butun bir bahor fasliga qiyoslaydi.

Bir onning bahosin o`lchamoq uchun,

Oltindan tarozu,olmosdan tosh oz.

Nurlar qadami-la chopgan sekundning

Barini tutolmas ayuhannos ovoz.

Bir onning bahosini shunday chiroyli tavirleydiki,hatto uni o`lchashga oltindan tarozi,olmosdan tosh oz deydi.Keyingi misrada esa kunduzni ya`ni bir kunning botishini tasvirlaydi,shu darajada tez o`tadiki,bularni esa ayuhannos ovoz ham to`xtata olmaydi,ya`ni vaqtimiz o`tgandan keying afsuslar foya bermaydi degan g`oya yotadi.

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek,

Diana ma`badin yoqmoq shart emas,

Ko`plarning baxtiga o`zlikni jamlab,

Shu ulug` binoga bir g`isht qo`ysak bas.

Tarixdan bizga ma`lumki qanchadan-qancha buyuk insonlar o`tgan,har biri o`zining buyuk ishlari bilan tarixda qolgan.Guruch kurmaksiz bo`lmagani kabi hamma ham yaxshi nom qoldirmagan,ya`ni bu misrada Gerostratga o`xshab shuhrat qoldiraman deb Diana ma`badin yoqish shart emas.Ammo,mana shu binoga bir g`isht qo`ysak ko`plarning baxtiga sababchi bo`lamiz.

Har lahza zamonlar umridek uzun,

Asrlar taqdiri lahzalarda hal.

Umrдан o`tajak har lahza uchun,

Qudratli qo`l bilan qo`yaylik haykal.

Shuni ta`kidlaydiki,asrlar taqdirini ham hatto lahzalar hal qiladi.Shunday ekan,har bir o`tayotgan lahzamiz o`z qo`limizda,demak har lahzamizni qadrlab,uni mazmunli,afsuslanishlarsiz o`tkazish ham o`z qo`limizda ekan.Shuningdek,keyingi misra orqali shoir quyosh hali ham falakda kkezib yuribdi,demak umrimiz boqiydir deya ta`kidlagan.

Bu she`rdan shuni xulosa qilib aytish mumkin,bu she`r vaqtning qanchali qadrliligini ko`rishimiz mumkin,o`tayotgan umrimizni sarxisob qilib, mazmunli o`tkazishimiz zarurligini ta`kidlagan.Azizlar vaqtimizni behuda o`tkazmaylik,zeroki,vaqt-oqar daryo,o`tgan vaqtimizni qaytara olmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.6-sinf adabiyot darsligi.

2.www.ziyonet.uz.

3.Tafakkur.uz.